

## **QISHLOQ XO‘JALIGIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKCHILIGI ASOSIDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH MASALALARI**

**Jahongir Kucharov Ovlayarovich**

“TIQXMMI” MTU ning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar tajribasi ko‘rsatishicha mulk va ishlab chiqarish jarayonlari xususiy subyekt ixtiyorida bo‘lsa resurslardan foydalanish samaradorligi bir necha barobar yuqori bo‘ladi. O‘z navbatida ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda davlatning ham o‘z majburiyatlari, o‘z funksiyalari bor. Bu sharoitda samarali faoliyatni tashkil etishga esa davlat-xususiy sherikchiligi (DXSH) orqali erishish mumkin.

Jahon banki mutaxassislarining bergan tarifiga ko‘ra davlat-xususiy sherikchiligi bu - qo‘shimcha investitsiyalarni jalb qilish va eng muhimi davlat budjeti mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish vositasi sifatida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasida davlat va xususiy sektor subyektlari o‘rtasidagi shartnomadir.

Jahon valyuta fondi esa ananaviy tarzda davlat tomonidan bajariladigan ish va ximatlarni xususiy sektorga berish yuzasidan kelishuvlar majmui davlat-xususiy sherikchiligidir deb ta’kidlaydi.

Shundan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, malakali kadrlar tayyorlash tizimida davlat – xususiy sherikchiligi bu - davlat tashkilotlari va xususiy subyektlar o‘rtasidagi uzoq muddatli munosabatlar majmui bo‘lib, bunda tomonlar malakali kadrlar tayyorlash sohasidagi loyihalarni amalga oshirishda resurslarni birlashtirish, daromadlarni ta’qsimlash, moddiy va nomoddiy imtiyozlarni hamda xarajat va xatarlarni o‘zaro teng manfaatlar asosida bo‘lishishni anglatadi.

Ta’lim tizimida davlat – xususiy sherikchiligini qo‘llash davlat va mahalliy budjet mablag‘laridan tejamkor va samarali foydalanishning zamonaviy yechimidir.

Rivojlangan davlatlarda ta’limda DXShni joriy qilish amaliyoti keng qo‘llaniladi va bu turli dastaklar yordamida rag‘batlantiriladi. Xususan Isroilda xar sakkizinchi olim ta’lim muassasasida maxsus venchur kompaniyalari tashkil etilgan bo‘lib, unda ta’lim muassasasi ilmiy-tijoriy g‘oyalalar va innovatsion texnologiyalarni tijoratlashtirishda xususiy subyektlar bilan xamkorlik qiladi [3]. Bundan tashqari Isroilda ta’lim tizimi bilan bevosita xamkorlik qiluvchi 26 ta texnologik inkubatorlar faoliyat yuritmoqda va ularning yillik budjeti 400 mln. AQSH dollarini tashkil etadi. Shu bilan birgalikda ta’limda ilmiy g‘oyalarni moliyalashtiradigan 70 ta venchur fondlar mavjud, ularning 14 tasi xususiy subyektlar bo‘lib yillik budjeti 1 mlrd AQSH dollarini tashkil etadi.

Koreyada esa malakali kadrlar yetishtirishni xususiy biznes vakillari tomonidan qo‘llab-quvvatlanish darajasi jami ta’limga sarf etilayotgan mablag‘larning 18,7 foizini tashkil etadi. Bunda asosan byurtma asosida mutaxassis yetishtirishga e’tibor qaratiladi.

Mamlakatimizda DXShni amalga oshirishning tashkiliy xuquqiy asoslari yaratilgan bo‘lib, uni ta’lim tizimiga joriy etish xalq ta’limi tizimida keng qo‘llanilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentabrdagi «Xalq ta’limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-5538-son Farmoni bilan xususiy maktablarni tashkil etish va rivojlantirish yo‘nalishlari va imtiyozlar belgilab berildi.

O‘z navbatida ta’kidlash lozimki, qishloq xo‘jaligi aholini oziq-ovqat, sanoatni xomashyo bilan ta’minlaydigan iqtisodiyotning ajralmas tarmog‘i hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtirish uzoq yillik dehqonchilik tajribasi, chuqur ilmiy bilim hamda innovatsion o‘zgarishlarga doimiy zaruriyat sezadigan tarmoq sanaladi. Bu esa sohaga mutaxassis tayyorlash tizimini zamonaviy mexanizmlar yordamida takomillashtirib borishni taqazo etadi.

Mamlakatimiz ta’lim tizimi ko‘rsatkichlariga e’tibor beradigan bo‘lsak, 2019 yilning 1 yanvar’ holatiga (oliy harbiy bilim yurtlaridan tashqari) 78 ta oliy ta’lim muassasalari va 20 dan ortiq filiallar faoliyat yuritmoqda. Shundan qishloq xo‘jaligiga malakali mutaxassislar tayorlovchi 1 ta universitet va uning 3 ta filiali hamda 2 ta institut va uning 2 ta filiali faoliyat yuritmoqda.

<https://conferencea.org>

Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bakalavr bosqichida ta'lim olayotgan jami talabalarning 7,4 foizi hamda magistratura bosqichida ta'lim olayotgan jami talabalarning 4,9 foizi qishloq va suv xo'jaligi yo'nalishida ta'lim olmoqda [5]. Boshqacha qilib aytganda oliy ta'lim tizimida 12,3 foiz yoki yillik o'rtacha 32 ming talaba agrar tarmoq ta'lim muassasalarida tahsil olmoqda.

Qishloq xo'jaligida malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga ham xususiy sektor subyektlarini jalb etish orqali quyidagi ijtimoiy-iqisodiy samaradorlikka erishish imkoniyati mavjud. Jumladan:

ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash va ulardan samarali foydalanish imkoniyati yaratiladi;

malakali kadrlar tayyorlashda bevosita quyi bo'g'in talablarini chuqur o'rganish va o'zaro byurtma asosida mutaxassis yetishtirishga zamin yaratiladi;

tor doirali va yetuk bilimli kadrlar soni ortishi imoniyati mavjud bo'ladi;

amaliy tajribalarni bevosita byurtmasi tadbirkor xo'jaligida amalga oshirish uchun ikki tomonlama manfaat shakllanadi;

bitiruvchi malakali kadrlarni ish bilan ta'minlashning avtomatlashgan mexanizmi ishlay boshlaydi;

bevosita xususiy sektor subyektlarining xo'jaliklarida yangi g'oya va ishlanmalarni moliyalashtirish va joriy etish imkoniyati yaratiladi;

bilimli va tajribali, shu bilan birgalikda qiziqish va motivsiyaga ega yoshlarni erkin tanlab olish orqali muassasa salohiyatini targ'ib qilish imkoniyati shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda malakali kadrlar tayyorlash tizimida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy etishning samarali usuli bu xususiy mulkchilik va uning boshqaruviga ustunlik berishdir. Bunda davlat qonunlarda belgilanganidek "fuqorolarga sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratib berish" kabi funksiyasini bajarishi hamda xususiy tadbirkor talab asosida mutaxassis yetishtirib berish orqali daromadga ega bo'lish imkoniyati yaratiladi.

Delmon, J. (2009). Private Sector Investment in Infrastructure: Project Finance, PPP Projects and Risk (2nd Edition; P. 7). Washington, DC: The World Bank and Kluwer Law International.

Киреева, А.В., Соколов, И.А., Тищенко, Т.В. (2012). Государственно-частное партнерство как инструмент поддержки инноваций (С. 140). М.: Издательский дом «Дело» РАНХиГС.

Межкластерное взаимодействие – основа инновационного развития промышленности Петербурга. - Международный промышленный форум «Российский промышленник» 25-28 сентября 2012 г. <http://promexpo.lenexpo.ru/node/61772>.

ВВ.Казаков Государственно-частное партнерство: мировой опыт и отечественная практика. Вестник Томского государственного университета. 2014. № 386. С. 165–171

Ўзбекистон Республикаси статистика қўмитаси маълумотлари.